

## RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

*Gulbaev Ne'matulla Abdukarimovich*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti*

*Raimjanova Nafosat Nozimovna*

*Bo'stonliq tuman 2 son kasb - hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

*Gulboeva Dilbar Zulhaydar qizi*

*Qibray tuman politexnikumi o'qituvchisi*

*Annotatsiya: Maqola raqamli iqtisodiyotning Respublikamiz iqtisodiyotidagi o'rniga bag'ishlangan bo'lib, unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimlarga e'tibor berilganligi talablar asosida ochib berilgan.*

*Kalit so'zlar: axborot, raqamli texnologiya, kompyuter, iqtisod.*

Respublikamizning dunyo miqyosidagi raqamli iqtisodiyotda tutgan o'rni va uning rivojlanish tendensiyalari tobora ortib bormoqda. So'nggi yillarda axborotdan ko'ra moddiy va energetika resurslari qamrovi kamayishi sezilmoqda.

Misol uchun, ma'lumotlar oqimi ko'laming o'zgarishi internet protokoli (IP) ga asoslangan global trafik hajmining oshishi kuzatilmoqda. Bu ma'lumotlar raqamli iqtisodiyot rivojlanishining dastlabki bosqichiga va hozirgi bosqichdagi rivojlanish sur'ati to'g'risida tasavvur hosil qilish qiyin emas. Prognozlarga nazar solsak, hozirgi kunga kelib global IP-trafik hajmi sekundiga oshmoqda, bu Internet tarmog'ida yangi foydalanuvchilarning ko'payishi va Internetning yanada kengayishi natijasida amalga oshmoqda.

Jahon miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish geografiyasida ikki mamlakat etakchi o'rinni egallab turibdi. Bular



AQSh va Xitoy. Bu mamlakatlarga blokcheyn texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan barcha patentlarning 75 foizi, "Internet of Things(IoT) (Narsalar interneti)"ga sarflanadigan xarajatlarning 50 foizi va bulutli hisoblash ochiq texnologiyalari global bozorining 75 foizidan ortig'i to'g'ri keladi. Eng diqqatga sazovor tomoni shundaki, ular dunyodagi 70 dan ortiq eng yirik raqamli platformalarning bozor kapitallashuvining 90 foizini nazorat qilishadi.

AQSh va Xitoyning YaIM hajmi bo'yicha jahonda birinchi va ikkinchi o'rinlarni egallab turganligini e'tiborga olsak, raqamli texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda IoT ning hissasi oshib bormoqda. IoT – qurilmalarni kompyuter tarmog'iga birlashtiradigan va ularga dasturiy ta'minot, amaliy dasturlar yoki texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash va boshqa ob'ektlarga uzatish imkonini beradigan texnologiya.

Hozirgi paytda kompyuterlashtirish va yuqori texnologiyalar asrida raqamli iqtisodiyot hayotimizning har bir jabhasiga: sog'liqni saqlash, ta'lim, internet-banking, hukumatga daxldor boshqa yo'nalishlariga kirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 28 apreldagi, PQ-4699-sonli Qarori asosida 2030 yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini bir necha baravarga ko'paytirishni nazarda tutilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi va qishloq xo'jaligini ravnaq toptirish, tadbirkorda tashabbuskorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslar bilan ta'minlash kabi omillarga asoslanadi.


Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hisobiga 2030 yilga borib, mamlakat yalpi ichki mahsuloti ko'rsatkichlari oshishi nazarda tutilgan. O'sish sur'atining ko'lamini belgilashda YaIMning nominal





o'sishi, iqtisodiyot samaradorligi, aholi jon boshiga daromadlar oshishi hisobga olingan. Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'limida ta'lim tizimi, mehnat bozori hisobiga inson kapitalini rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish orqali aholining sog'lig'ini yaxshilash ko'rsatkichlarini oshirish, ijtimoiy himoya, atrof-muhitni asrash, ilg'or fikrlaydigan yangi avlodni shakllantirish, mamlakatning milliy brendini xalqaro miqyosda ommalashtirish kabi maqsadlar bayon etilgan.

Raqamli iqtisodiyot inqilobi quidagi rasmda ko'rsatilgan tarmoqlarda kuchli his qilinmoqda(1-rasm).



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot inqilobi reytingi

Yuqorida zikr etilga masalalarni amalga oshirishda bo'lajak iqtisodchi kadrlar quydagilaga e'tibor berishi lozim:

- raqamli iqtisodiyotning texnologik, holatiy, tashkiliy-huquqiy hamda institutsional xususiyatlarini inobatga olgan vaziyatlarni to'g'ri modellashtirish,





- raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini tashkil etish;
- “blokcheyn” texnologiyalarning mohiyatini anglab etish;
- global axborot resurs bazalaridan samarali foydalanish usul va yo‘llarini bilish;
- “blokcheyn” texnologiyalarini joriy etish;
- davlat xususiy sheriklik shartlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish,
- kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish, eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- raqamli transformatsiyasining ijobiy hamda salbiy oqibatlari, ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;
- raqamli iqtisodiyotning makro hamda mikro darajadagi ko‘rsatkichlarga ta’sirini baholash;
- raqamli transformatsiya samaradorligini baholash;
- axborot xavfsizligi muammolarini aniqlash;
- davlat xususiy sherikchilik asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun platformalar tashkil etish.

Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar asosidagi xizmatlari sohasining jadal sur’atlar bilan rivojlanishi N.Rotshildning *"Kim axborotga ega bo'lsa, o'sha dunyoni boshqaradi"* degan klassik iborasi naqadar o‘z vaqtida aytilganini yeslashimiz lozim.

Hozirgi kunda Respublikamizda iqtisodiyot strukturasi o‘zgarmoqda tobora ko‘plab odamlar tovar ishlab chiqarish bilan emas, balki axborot olish va qayta ishlash bilan shug‘ullanmoqda. Hamma uchun odatiy

bo'lgan iqtisodiyot o'rniga bir qator xususiyatlarga ega bo'lgan raqamli iqtisodiyot kelmoqda:

- asosiy resursga tugab bitmaydigan axborot aylanadi;
- internetda savdo maydonlari cheklovlarga ega emas;
- kompaniya o'lchami uning raqobatbardoshligiga ta'sir etmaydi;
- bitta jismoniy resursning o'zi turli xizmatlar taqdim etish uchun cheksiz marta foydalanilishi mumkin;
- operatsion faoliyat ko'lami faqat Internet kuchi bilan belgilanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni to'la tushinish uchun bo'lajak iqtisodchi talabalardan fanlarni o'rganishda quyidagilarga e'tiborli bo'lish talab qilinadi:

- zamonaviy operatsion tizimlarning funksional imkoniyatlari bilan tanishish;
- matn va jadval ma'lumotlarini qayta ishlash dasturlarini shuningdek, taqdimotlar tayyorlash dasturlari bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
- zamonaviy dasturlash tillaridan foydalangan holda dasturlar yaratish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish va boshqalar.

### **Adabiyotlar**

1. С.С.Гулямов, Р.Х.Эргашев, С.Н.Хамраева. Рақамли иқтисодиёт -(ўқув қўлланма),-Т.: 2020. -377 б.





2. Gulbaev N.A., Amirova M.O'. "Ta'lim jarayonida masofaviy ta'lim muammolari va echimlari". Kompyuter lingvistikasi: muammo va echimlar (Компьютерная лингвистика: проблемы и решения, Computational linguistics and solutions) mavzusidagi xalqaro an'anaviy onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent, 16-may, 2022-y.

3. Gulbaev N.A., Xusanova N.A. "Ta'limda axborot texnologiyalari" fanida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligi". МИРОВАЯ НАУКА. ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ: Материалы В международной научно-практической конференции (24-25 ноября 2022 г., Волгоград) Отв. ред. Морозов С.А. – Издательство СПМ «Академия просвещения», Волгоград 2022. - 306 с.

